

XOTIN QIZLAR SPORTI

yo‘nalishiga topshirgan abituriyentlar diqqatiga

Hurmatli abituriyent!

1. Siz 2021-2022 o‘quv yilida Andijon davlat universitetining Pedagogika institutiga 5112001-xotin qizlar sporti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishiga hujjat topshirdingiz, endi kasbiy (ijodiy) imtihonda jismoniy madaniyat asosi bo‘lgan yengil atletika fanlaridan amaliy ish bajarib, o‘z jismoniy qobiliyatingizni namoyon etasiz. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari, qaysi guruhda ekanligingizni va qaysi kuni imtihonga kelishingiz haqidagi ma‘lumotlarni universitetimizning <http://adu.uz> saytidan olishingiz mumkin.

2. Siz o‘zingiz bilan pandemiya holatini inobatga olgan holda, xavfsizligingizni ta‘minlash maqsadida himoya vositasi – tibbiy niqob bilan kelishingiz so‘raladi. Abituriyentlar o‘zlari bilan shaxsini tasdiqlovchi pasporti va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishlari shart.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonga siz 100 va 1000 metr masofaga yugurish uchun sport kiyimingizni (спортивный форма) olib kelasiz.

4. **HURMATLI OTA-ONALAR** imtihonlarga farzandingiz bilan kelmasligingizni iltimos qilamiz. Bu birinchi navbatda pandemiya sharoitida o‘zingizning va boshqalarning salomatligi uchun kerak. Shu munosabat bilan ota-onalarga maxsus joylar va boshqa sharoitlar bu yil yaratilmagan. Siz farzandlaringizni kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri <http://adu.uz> sayti orqali kuzatib borishingiz mumkin. Uyda qoling va karantin qoidalariga amal qiling.